



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

## Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
2022-yil 25-oktyabrda  
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan  
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi  
№354-sonli qarori bilan  
**Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy attestatsiya  
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar  
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,  
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.  
Electron manzil: info@adpi.uz  
Telegram: ADPI\_Ilmiy\_xabarnomasi  
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

**BOSH MUHARRIR:**  
**B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor**  
**Mas'ul muharrir:**  
**B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor**

### TAHRIR KENGASHI

**S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi**  
**I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor**  
**Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor**  
**A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor**  
**B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor**  
**Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor**  
**Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor**  
**Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor**  
**T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent**  
**M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent**  
**A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor**  
**U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor**  
**M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor**  
**L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor**  
**Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent**  
**D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**  
**M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)**  
**N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)**  
**M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**Muharrirlar:**  
**O.Karimov,**  
**U.Malikova,**  
**B. Mashrabova.**

<b>Xalikov A.A.</b> Talabalar o'rtasida o'tkaziladigan turli reglament asosidagi futbol musobaqalarni ahamiyati .....	<b>135</b>
<b>Abdullayev F.D.</b> Kichik yoshdagi o'quvchilarning jismoniy mashqlarga adaptatsiyalanish jarayonining boshlanishi .....	<b>140</b>
<b>Botirov A.A.</b> O'zbek tili tarixiy terminlari va leksikasining davriy taraqqiyoti .....	<b>145</b>
<b>Камалходжаева С.С.</b> Типы межъязыковых связей: родство и контакт .....	<b>148</b>
<b>To'rayev A.T.</b> Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'sish va rivojlanishiga jismoniy mashqlarni ta'sir kuchi .....	<b>153</b>

#### **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR**

<b>Abduraimov Sh.N.</b> Tarbiya fanini o'qitishda jamoada ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalarning qo'llashning ahamiyati .....	<b>158</b>
<b>Jo'raev Sh.M.</b> Falsafa fanini oqitish orqali mantiqiy tafakkurni rivojlantirish tajribasi .....	<b>164</b>
<b>Hoshimova G.Sh.</b> Oila va ta'lim mas'uliyati sharoitida turmush qurgan talabalarning psixologik barqarorligi .....	<b>167</b>
<b>Botirov A.A.</b> XX asrda o'zbek tili leksikasida ruscha o'zlashmalar: qiyosiy filologik tahlil .....	<b>171</b>

#### **ANIQ VA TABIIY FANLAR**

<b>G'aniyev A.G.</b> "Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (MIND MAP) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish .....	<b>174</b>
<b>Tuxtayeva M.Sh.</b> Iqtisodiy kompetentlikni rivojlantirishda raqamli transformatsion muhitga moslashuvchan faol tajribaga asoslangan ta'limning ahamiyati .....	<b>178</b>
<b>Aslonov X.Sh.</b> O'quvchilarni olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish usullari va texnologiyasi .....	<b>183</b>

UO'K: 373.1

**TARBIYA FANINI O'QITISHDA JAMOADA ISHLASH KOMPETENSIYALARINI  
RIVOJLANTIRISH UCHUN INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING  
QO'LLASHNING AHAMIYATI**

<https://zenodo.org/records/18754832>

**Abduraimov Sherali No'monjonovich**  
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda respublikamiz umumta'lim maktablarida tarbiya fanini o'qitilishi jarayonida tayanch va fanga oid kompetensiyalar haqida ma'lumotlar berilgan. Shuning barobarida, jamoada ishlash kompetensiyalarini shakllantirishning ahamiyati ko'rsatilgan. Jamoada ishlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun dars mashg'ulotlarida innovatsion usullardan foydalanishni taqozo etadi. Jamoada ishlash kompetensiyasi – bu insonlarning boshqalar bilan samarali muloqot qila olishi, umumiy maqsad sari hamkorlikda harakat qilishini ifodalaydi. Buning ahamiyati ushbu maqola orqali tahlil etib berilgan. Undan tashqari jamoada ishlash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar ham namuna sifatida ko'rsatib berilgan. Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri - bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar tinglovchi talaba-yoshlarni va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati sifatida bugungi kun o'quvchilarini fikrlashga undaydi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, pedagogik texnologiyalar, kompetensiya, kolloboratsiya, kreativlik, kritik, interaktiv usullar, innovatsion usullar.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о базовых и предметных компетенциях в процессе обучения образованию в средних школах нашей республики сегодня. При этом показана важность формирования компетенций командной работы. Развитие компетенций командной работы требует использования инновационных методов на уроках. Компетенции командной работы представляют собой способность людей эффективно общаться с другими и работать вместе для достижения общей цели. Важность этого анализируется в данной статье. Кроме того, в качестве примеров приводятся педагогические технологии, которые служат для формирования компетенций командной работы. Одним из самых популярных видов педагогических технологий сегодня являются интерактивные методы. Интерактивные методы как совместная деятельность учителя и слушателя побуждают сегодняшних учеников к мышлению.

**Ключевые слова:** образование, педагогические технологии, компетентность, сотрудничество, креативность, критическое мышление, интерактивные методы, инновационные методы.

**Abstract.** This article discusses information about the basic and subject-specific competencies in the process of teaching education in secondary schools of our republic today. At the same time, the importance of forming teamwork competencies is shown. Developing teamwork competencies requires the use of innovative methods in lessons. Teamwork competencies represent the ability of people to communicate effectively with others and work together towards a common goal. The importance of this is analyzed in this article. In addition, pedagogical technologies that serve to form teamwork competencies are also shown as examples. One of the most popular types of pedagogical technologies today is interactive methods. Interactive methods, as a joint activity of the teacher and the listener, encourage today's students to think.

**Keywords:** education, pedagogical technologies, competence, collaboration, creativity, critical, interactive methods, innovative methods.

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, uni ijtimoiy hayotga tayyorlash va zamonaviy jamiyatda samarali faoliyat yurita oladigan, dunyo arenasida kapital sifatida raqobatlasha oladigan yetuk inson sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Shu ma'noda tarbiya fani alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiya

— aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon [1]. Tarbiya jarayoni nafaqat axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi, balki o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini, xususan, jamoada ishlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun ham zarur. Jamoada ishlay olish qobiliyati zamonaviy mehnat bozorida eng zarur kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan respublikamizda bu sohada islohotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni [2], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020-yil 6-iyulda qabul qilingan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-sonli qaroridagi [3] vazifalar ijrosini amalga oshirishda tarbiya fanini o'qitilishida Respublika ta'lim markazi yangicha yondashuvlarni boshlashni ko'rsatib berdi.

Tarbiya fani o'quvchilarning axloqiy, estetik, mehnat, ekologik va huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Bu fanda jamiyatning talab va ehtiyojlariga javob bera oladigan, yuqori insoniy fazilatlarga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash masalalari muhim o'rin tutadi. Davlat ta'lim standartlariga muvofiq har bir shaxsning ta'lim va tarbiya olishdagi konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarish davlatning ta'lim sohasidagi asosiy maqsadlaridan biri sanaladi [4]. Shu bilan birga, bu jarayon orqali o'quvchilar o'zaro muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, muammoni hal qilish kabi hayotiy ko'nikmalarni egallaydi. Bu ko'nikmalar ham normativ hujjatlarda o'z ifodasi topdi: ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirildi.

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi [5].

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantirildi. Tarbiya fani uchun Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-son qarori "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani konsepsiyasidan kelib chiqqan holda alohida 2020-yil 14-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri 235-son buyrug'i bilan davlat ta'lim standarti ishlab chiqilgan.

Jamoada ishlash kompetensiyasi – bu insonning o'zga insonlar bilan samarali muloqot qila olishi, umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilishi, o'z fikrini ifodalashi, boshqalarning fikrini tinglash va hurmat qilishi, ixtiloflarni hal qilish qobiliyatlaridir. Bu kompetensiya ijtimoiy-emotsional intellektning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tarbiya jarayoni guruhda o'qitish va faoliyat orqali tashkil etilganda, o'quvchilar orasida o'zaro tushunish, hamkorlik va mas'uliyat hissi shakllanadi. O'quvchilarning birgalikda loyihalar ustida ishlashi, guruhli bahs-munozaralarda qatnashishi, ijtimoiy aksiyalarda ishtirok etishi ularda jamoaviy ruhni rivojlantiradi. Bugungi kunda jamoaviylik kompetensiyasi hamkorlik pedagogikasi, "kollaboratsiya" tushunchasi bilan o'zaro ma'nodosh hisoblanadi. Hamkorlik pedagogikasi g'oyasining asoschisi Simon Soloveychik sifatida e'tifof etilsa, kollaborativ ko'nikmalarni rivojlantirish g'oyalari Sh.A. Amonashvilli, V.F. Shatalov, S.N.Lisenkova va boshqa olimlar nazariyalarida o'z ifodasini topgan.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari ichida ta'lim sohasida yetakchilik qilayotgan Yaponiya, Janubiy Koreya, Finlandiya, Singapur ta'lim yutuqlari reytingda tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. O'rganishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, ushbu mamlakatlarning ta'lim siyosati va ta'lim standartlarini belgilaydigan hujjatlarida o'quvchilar uchun zarur bo'lgan eng keng tarqalgan kompetensiyalar: qadriyatlar, munosabatlar va boshqa ta'lim natijalarini aniqladilar. Ular orasida tanqidiy va innovatsion yoki kreativ fikrlash, o'zini boshqarish va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati yetakchi o'rinlarni egallaydi. Bugung kunda bu yondashuv 4 K modeli asosida yondashuv deb qaralmoqda. 4K modeli - XXI asr ko'nikmalarini har bir o'quvchida shakllantirishga xizmat qilmoqda. 4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga qamrab oladi:

1-yondashuv. Kollaboratsiya (O'quvchilarning o'zaro hamkorlik qilishi): barcha darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

2-yondashuv.Kommunikativlik (O'quvchilarning o'zaro muloqoti) : o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, erkin, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga hamda tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadi.

3-yondashuv.Kreativ fikrlash(O'quvchilarning ijodiy fikrlashi): o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

4-yondashuv. Kritik (O'quvchilarning tanqidiy yondashuvi) fikrlash : ushbu tamoyil o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Bugungi kunda bu model - yangi innovatsion yondashuvni yurtimiz maktablarida barcha fanlarda joriy etilmoqda. Tarbiya fanini o'qitishda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali metodlari sifatida quyidagilarni misollar sifatida keltirishimiz mumkin:

Guruhli ish usuli: kichik guruhlarda tarbiyaviy topshiriqlar bajarish.

Rol o'yinlari: ijtimoiy rollarni bajarish orqali empatiya va muomala ko'nikmalarini rivojlantirish.

Loyiha asosida o'qitish: umumiy maqsadga xizmat qiluvchi loyiha yaratish.

Munozara va debatlar: o'z fikrini asoslash va boshqalarning nuqtai nazarini hurmat qilishga o'rgatadi.

Amaliy misollar va tajribalar. Masalan, "Inson ko'rki - odob" mavzusi doirasida o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, har biri odob doirasidagi bir mavzuni yorituvchi sahna ko'rinishini tayyorlaydi. Bu jarayonda ular rollarni taqsimlash, fikr almashish, bir-biriga yordam berish orqali jamoaviy ish olib boradilar.

Yana bir misol: "Yaxshilik qil, undan savob top" shiori ostida ijtimoiy aksiya uyushtirish orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ijtimoiy loyihalarni rejalashtiradi hamda amalga oshiradi. Bu jarayonda pedagogning roli shundaki, jamoada ishlash kompetensiyasini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor qaratishi zarur:

- O'quvchilarda ijobiy munosabatni shakllantirish;
- Guruhda har bir a'zoning faol ishtirokini ta'minlash;
- Tenglik va hurmat muhitini yaratish;
- Baholashda jamoaviy mehnatni e'tiborga olish [6].

Bu jihatlariga e'tibor qaratish, ta'minlash, bajarish esa bizga ham faxr, iftixor tuyg'ulari bilan birga, zavqli bo'lishi kerak. Shundagina biz ushbu vazifani amalga oshirgan bo'lamiz. Buning uchun bizga zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar katta yordam beradi.

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri - bu interaktiv metodlardir. Interfaol (interaktiv) ("Inter"-bu o'zaro, "akt"-harakat qilmoq) -o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitishning interfaol uslublari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Ta'limda interfaol metod - bu o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlarini kuchaytirish, faollashtirish demakdir. Mazkur metodlar hamkorlikda ishlash vositasida dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ular o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Interfaol metod -ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar

o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Interaktiv metodlar tinglovchi o'quvchi (tinglovchi) - yoshlarni va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan tinglovchilarni fikrlashga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ularga o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. Pedagogning asosiy vazifasi bu yerda ularga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat.

Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi tinglovchi ning fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytadi. Natijada tinglovchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar tinglovchi va pedagog o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin tinglovchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga tinglovchilarning bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. E'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda tinglovchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda hech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda talabalarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida boy tajriba to'plagan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Interaktiv usullardan foydalanish, kollaboratsiyani rivojlantirishda asosiy ish o'quvchilarini guruhlariga taqsimlash ko'zda tutadi. Shuning uchun guruhlariga taqsimlash usul haqida kengroq to'xtalib o'tamiz. Albatta guruhga taqsimlash orqali dars jarayonlarini amalga oshirayotganimizda tanlayotgan pedagogik usulda o'quvchilar sonini hisobga olishimiz kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2017-yil 15-martdagi 140-son qaroriga ko'ra, umumta'lim muassasasining sinflari to'liqligi 35 nafardan ortib ketishiga yo'l qo'yilmaydi[4. 28-band]. Biz shundan kelib chiqib, sinfdan ko'pi bilan 34 nafar o'quvchilar jamoasini guruhga taqsimlashimiz kerak. Odatda pedagogik usullarning ko'pida o'quvchilarning 20-25 nafar bo'lishi me'yor sifatida belgilangan. Biz esa pedagogik usulni tanlayotganimizda shuni ham e'tiborga olishimiz kerak. Undan tashqari, guruhlariga taqsimlashda e'tiborga oladigan jihatlarni tushuntirib o'tishimiz muhim. 34 nafar o'quvchilarni stollar joylashuviga ko'ra uch guruhga ajratishda: 1-qator, 2-qator, 3-qator. Agar stollar 4 qator tizilgan bo'lsa 4-qator kabi guruhlariga ajratishimiz mumkin. Bu holatda o'quvchilar stollari joyida qoladi, xonada o'zgarish qilinmaydi. Bu eng oson va keng foydalanadigan usul. Qatorlarga mavzu nomidan kelib chiqib nom berilsa va taxta ko'rgazmalardan foydalangan holda tashkil etishni tavsiya etamiz. Guruhlarga taqsimlab olgach, albatta o'quvchilardan birini yordamchi qilib olish ijobiy samara beradi. Navbatchi o'quvchi, iqtidorli o'quvchi yoki avvalgi darsda g'olib bo'lgan guruhning eng faol vakilini yordamchi qilib olish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki yordamchi bo'lishni ko'pchilik o'quvchi xohlaydi. Bunday tanlovni o'qituvchi avvaldan ogohlantirib qo'yishi kerak.

Biz taklif qilayotgan usul: "Maxfiy guruh" usuli. Bu usulda ishlash orqali shartli 3 ta bosqichni bosib o'tish mumkin.

1-bosqichda o'quvchilarni guruhga taqsimlash uchun maxsus tarqatmalardan foydalaniladi. 1, 2, 3 raqamlar yozilgan kartochkalarni aralashtirib, barcha o'quvchilarga tarqatish. Kartochkalarda guruhlar teng taqsimlanadi. Masalan, 30 nafar o'quvchi bo'lsa har bir

raqamdan 10 tadan tayyorlangan bo'lishi shart. A'lochi, topqir o'quvchilarni bir guruhga tushib qolishini oldini olish uchun alohida maxsus belgi orqali sezdirmay tarqatish ham muhim. Kartochkalar har bir o'quvchini daftari yoki kitobi orasiga o'qituvchi tomonidan joylab chiqiladi. O'quvchi qaysi raqam tushgan bo'lsa ham, uni hech kimga ko'rsatmasliklari kerak. Shu bilan birinchi ishni amalga oshirdik.

2-bosqichda savollar beriladi. Har bir to'g'ri javob uchun topgan o'quvchiga ball kartochkasi berib boriladi. Ball kartochkasini olgan o'quvchi dars yakuniga qadar to'plab boradi. Ball kartochkasini tayyorlashda hamma darslarda har xil kartochkalalardan foylansa yanada qiziqarli bo'ladi. Masalan, mavzuga mos atama, rasmlar, so'zlar, hikmatlarni kartochkada aks ettirish mumkin.

3-bosqich: Darsning yakunida o'qituvchi tomonidan maxfiylik kartochkalari va ball kartochkalarini tekshirish va yig'ib olish jarayoni. O'qituvchi maxfiylik kartochkalarini tekshirish barobarida o'quvchilardan ball kartochkalarini yig'ib oladi, yordamchi sifatida o'quvchilardan biri 3 ta guruhning ballarini doskada yozib boradi. O'qituvchi esa e'lon qilib boriladi. Barcha o'quvchilardan maxfiylik kartochkalari ham ball kartochkalari ham yig'ib olinadi. Umumiy natija e'lon qilinib, g'olib jamoa nomi e'lon qilinadi. G'olib jamoa ishtirokchilari o'rnidan turib oshkor etiladi.

O'quvchilar bunday guruhlash usuliga ko'pi bilan 2 marta dars jarayonida o'rganib, moslashib oladi. Bu usul har safar turli jamoadoshlarni tadim etadi, zerikib qolishmaydi.

Alohida ta'kidlash joizki, bu usullarda muammo va kamchiliklar ham bor. Ularni vaqtda aniqlab, bartaraf etilsa, salbiy ta'siri kamayadi. Ular: O'quvchilarda individualistik fikrlashning ustuvorligi, guruhli ishni to'g'ri tashkil eta olmaslik, barcha o'quvchilarni faol ishtirok ettirishda qiyinchilik va hakovolar. Taklif sifatida: pedagoglar uchun seminar-treninglar o'tkazish, har bir darsda jamoaviy ish elementlarini kiritish, ota-onalar bilan hamkorlikda ijtimoiy loyihalar tashkil qilish.

Xulosa sifatida tarbiya fanini o'qitish jarayonida jamoada ishlash kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'limning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu kompetensiyaning shakllanishi nafaqat o'quvchilarning o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatiga, balki kelgusidagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya jarayonida jamoaviy ishga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish orqali har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashga erishish mumkin. Vatanimiz taraqqiyoti uchun birgalikda harakat qiladigan avlodni tarbiyalash esa asosiy vazifamizdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida" gi qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son. Toshkent shahri.lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son farmoni. – T.:2017 yil, 7 fevral.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 422-sonli qarori. 2020-yil 6-iyul.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori.

5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.

6. Azizxo'jayev N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma – T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti. 2006-yil.

